

Turg'unboyeva Umida.

Guliston davlat pedagogika instituti, pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada “Avesto” dagi ta’lim tarbiyaga oid fikirlar va O’rta Osiya Eron tarixidagi muqaddas yodgorlik ekanligi va uning tarkibi abadiy manbaga yaqin turishi yortilib berilgan .

Tayan tushunchalar: ta’lim, tarbiya , tarixiy , kamolatga, inson, falsafiy, din, qarashlar, yurtimiz, bag’rikenglik, manba, fikirlar, qo’lyozmalar.

Kirish. “ Avesto ” - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarmi o’zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insoni kamolatga erishuvida mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag’rikenglik kabi sifatlaming ahamiyati chuqur ifodalangan. Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi Zardusht (turli tillarda Zaratushra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht miloddan awalgi 1-ming yillikning birinchi choragida yashagan. Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi – mehnat deb ko’rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlami keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Zardushtiylik yoyilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo’lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida ado etilgan. Keyinchalik kohinlar Zardusht va’zlarini yozib borganlar. Zardusht dini kohinlari bunday diniy matalami yod bilganlar va ibodat paytida o’qiganlar, Zardusht vafotidan bir necha asr o’tgach barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltirildi. Bu zardushtiylar muqaddas kitobi «Avesto» edi. «Avesto» so’zi «qat’iy qonunlar» ma’nosini bildiradi. Zardusht diniga ko’ra, atrofdagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o’rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong’ulik, hayot bilan o’lim, ezgulik bilan yomonlik, qonun bilan qonunsizlik o’rtasida. Zardushtiylar hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so’z, oljanob o’y-fikrdan iborat bo’lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo’lmog’i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g’alaba qilishini ko’zlab yashash kerak: yo!g’on gapirmaslik, so’zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq. Zardusht dini bo’yicha har bir inson hayot yo’lini o’zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o’zi hal qiladi.”Avesto” tarbiyaviy manba sifatida.

«Avesto» asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g’oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma’rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim malumotlarga ega bo’lamiz. « Avesto » diniy xarakterga ega bo’lish bilan birga, o’zida

falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarini ham qamrab olgan. Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, er, chorva, daraxt hamda o'simliklar ulug'lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar-tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metadalogiyasi .

Avesto — jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi. Zardushtiylik dinining Muqaddas kitoblari to'plami. Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabit etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. Arshakiylardan Vologes I davri (51–78)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. Sosoniylar davri (III–VII asr)da yaxlit kitob holiga keltirilgan. “Avesto” 21 nask (qism)dan iborat bo'lgan. “Avesto” hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli – „Kichik Avesto“ (Kurdak avesto) yaratilgan. Arablar Eronni fath etgach (VII asr) Zardusht dini ruhoniylarining bir qismi Hindistonga ko'chib o'tgan. Ularning avlodlari (parslar) Bombay shahrida o'z jamoalarida hozirgacha “Avesto”. ning asl nusxasini saqlab keladi. Fransuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron Zardusht izdoshlari jamoasida yashab, “Avesto” tilini va yozuvini urganib, uni tarjima qilib nashr etgan (1771) “Avesto” ning bu nusxasi 27 jiddan iborat bo'lib, asarning yettidan bir qismidir. U Yasna, Vispered, Vendidad, Gatlar va Yashtlar nomi bilan yuritiladigan kitoblarni o'z ichiga oladi. “Avesto”da bayon etilgan g'oyalarga ko'ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning tuxtovsiz kurashidan iborat.

Muhokama.

«Avesto» tarbiyaviy manba sifatida. «Avesto» asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g'oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim malumotlarga ega bo'lamiz. «Avesto» diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga, o'zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarini ham qamrab olgan.

Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, er, chorva, daraxt hamda o'simliklar ulug'lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar-tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi.

Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi Adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson sa-hovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasmrusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

«Yaxshi fikr» iborasining mazmuni o'zida ilohiy qonun ruhidagi g'oyalarga ega bo'lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko'rsatish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo'lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do'stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda inson yaxshilik haqida o'ylamaydi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

«Avesto»dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo'lsa, ular qadimgi zamona kishilarining axloqiy tasawurlariga batamom muvofiq bo'lib tushadi. Fikr, so'z va ishning birligi ibridoiy insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasawurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langan, Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so'zlari uning ham so'zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg'unligi-urug'chilik jamiyatining muhim belgisidir. Jamoaning har qanday topshirig'ini bajarish uning a'zolari uchun mu-qaddas qonun edi.

Natijalar.

“Avesti” ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk

Davlat, buyuk ma`naviyat, buyuk madaniyat bo`lganligidan

Guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor

eta olmaydi.

“Avesto” oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda datslab to`qqiz ho`kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar (mil. Ol. 7-3 asr) davrida 21 kitob holida yig'ilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. Tiklangan matnga “Zand” nomi bilan sharhlar bitilgan. “Avesto” to`rt qismdan iborat: Yasna (“Diniy marosimlar”), Yasht (ma`no jihatdan Yasnaga yaqin), Visparad (“Barcha ilohlar haqidagi kitob”), Vendidad (“Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi”). Yasna tarkibiga kirgan madhlar “Gatlar” (ayrim manbalarda “gochlari”) deb nomlanib, ularni Zardutsning o'zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Er To`nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi. “Avesto” insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e'tiborini tortgan. U haqda F.Nitsshe, F. Shpigel, A. Mayllet, V. Bartold, E. Bertels, Yan Ripka, O.Makovelskiy, I. Braginskiy v.b. xorijiy olimlarning

tadqiqotlari mavjud.O`zbekistonda “Avesto”ni o`rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy, Abu Baxr Narshaxiy asarlarida “Avesto” ta`limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud. Bu nodir ilmiy asarlarning qo`lyozma va bosma nusxalari O`R FA SHI jamg`armasida saqlanadi. Hozirgi o`zbek olimlari A.Qayumov, H. Homidov, M. Isoqov, N. Rahmonov v.b.ning ilmiy tadqiqot va maqolalari e`tiborli. O`zbekiston Respublikasi hukumatning qarori bilan 2001 yilda “Avesto”ning 2700 yilligi nishonlandi. “Avesto” vatani Xorazmda bog` barpo qilindi, asarning o`zbek tilidagi tarjimalari chop etildi, u haqda yangi tadqiqotlar yuzaga chiqdi.

«Avesto» tarbiyaviy manba sifatida. «Avesto» asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g`oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma`rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim malumotlarga ega bo`lamiz. « Avesto » diniy xarakterga ega bo`lish bilan birga, o`zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan

Uning so`zi, fikri hamda ishi ezgu bo`lishi va ezgulikning uchun xizmat qilishiga katta e`tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g`oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma`rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo`lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma`naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo`lgan muayyan talablar o`z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G`arb xalqlarining ham muhim ma`naviy merosi bo`lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

B.X.Xodjayev. Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.”Sano standandarf nashiriyoti. 2017.

arimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo q. T., Sharq, 1998.

Avesto. O`zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.:2001.

«Avesto»dan (tarj. M. Ishoqov). O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999, # 2-4

Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.-T.:1969

Abu Bahr Muhammad ibn Ja`far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: 1966A.

Qayumov. Qadimiyat obidalari. – T.: 1971.